

Muzaffar MEYLIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail:muzaffarmeyliyev8@gmail.com

O'zMU dotsenti, f.f.n I.K.O'sarov taqrizi ostida

METHODS OF ACTIVE WORD FORMATION OF POLYMER TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article analyzes and summarizes different views on the most effective methods of term generation. The lexicon with a limited scope is studied as a general topic. Linguistic features of polymer chemistry terms, changes in meaning are in general. The scientific terms and their semantic analysis, which are the main subject of study in the article, form the research perspectives of chemical terms, polymer technology terms based on the natural features of terminology and linguistics general.

Key words: Term, terminological lexicon, formation of terms, compound terms, active methods of word formation.

СПОСОБЫ АКТИВНОГО СЛОВООБРАЗОВАНИЯ ПОЛИМЕРНЫХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.

Аннотация

В данной статье анализируются и обобщаются различные взгляды на наиболее эффективные методы генерации терминов. Лексика ограниченного объема изучается как общая тема. Изучены лингвистические особенности терминов химии полимеров, изменение их значений в целом. Научные термины и их семантический анализ, являющиеся основным предметом исследования в статье, формируют перспективы исследования химических терминов, терминов технологии полимеров, основанных на естественных особенностях терминологии и лингвистики в целом.

Ключевые слова: Термин, терминологическая лексика, терминообразование, сложные термины, активные способы словообразования.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA POLIMER TERMINLARINING FAOL SO'Z YASALISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada termin hosil qilishning eng samarali usullari haqida turli xil qarashlar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Qo'llanish doirasasi chegaralangan leksika umumiyo mavzu sifatida o'rganiladi. Polimerlar kimyosi terminlarining lingistik xususiyatlari, ma'noda o'zgarishlar umumlashtirib o'rganiladi. Maqolada asosiy o'rganiladigan predmet qilib olingan ilmiy terminlar va ularning semantik tahlili terminologiya, umuman tilshunoslikning tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqib kimyoviy atamalar, polimerlar texnologiyasi bo'yicha terminlarning tadqiqot istiqbollarini shakllantiradi.

Kalit so'zlar: Termin, terminologika leksika, terminlarning yasalishi, qo'shma terminlar, so'z yasashning faol usullari.

Kirish. Davr taraqqiyoti ijtimoiy hayotdag'i o'zgarishlar tilning barcha sohalarida o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Leksik birlik qo'llanish chastotasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ko'pgina leksemalar keng qo'llanishga, ba'zilari esa tor qo'llanishga ega bo'ladi. Shunga ko'ra til leksikasi ikki qatlama bo'linadi:

- a)Qo'llanilishi chegaralangan leksika
 - b) Qo'llanilishi chegaralannagan leksika
 - Qo'llanilishi chegaralannagan leksika umumiste'moldagi leksika hisoblanadi .
 - Qo'llanilishi chegaralangan leksika esa uchta guruhga bo'linadi:
- 1) dialektal leksika
 - 2) terminologik leksika
 - 3) noadabiy leksika (argo va jargon) [1]

Fan texnika, qishloq xo'jaligi, sanoat sohalariga xos leksik birlik maxsus leksika sifatida o'rganiladi va tahlil qilinadi. Maxsus leksika deganda ma'lum bir sohaga tegishli lug'aviy birlik va ularga tenglashgan birikma tushuniladi.

Terminlar ko'pincha umumiste'mol leksikadan ma'lum bir ma'nolarining moslashuvidan hosil bo'ladi. Ilmiy terminlar ko'p hollarda tarjimasiz bo'lganligi tufayli dunyo fani ularni bir butunlik sifatida ushlab turadi .Ilmiy termin yaratish jarayoni mutaxassisiga bog'liq bo'lib, termin sifatida olinadigan so'z ona tilidagi so'z bo'ladimi yoki boshqa tildan o'zlashtiriladimi bu ilmiy izlanuvchining o'ziga bog'liq.Biroq har ikkala holatda ham terminolog so'zni umumiste'mol tilidan o'zlashtiradi. Shu o'zlashtirish manbalariga ko'ra til ichidagi o'zlashtirish yoki boshqa tildan o'zlashtirish yuzaga keladi.

Ingliz va o'zbek tillari ham so'z yasashning turli xil faol usullaridan keng ko'lamba foydalanadi va bular polimer terminlarining hosil bo'lishida ham muhimdir.

Birlashtirish(compounding)

Bu ikki yoki undan ortiq turli so'zlarni qo'shish orqali so'z yaratishni bildiradi. Qo'shma so'zlar yangi ma'noga ega bo'lib, bu boshqa so'zlarning ma'nolari bilan aniq bog'liqidir.**Masalan:** far+ constants= far constants, uzoq doimiylar;dynamic+fatigue=dynamic fatigue,dinamik charchash;

Derivation(derivatsiya)

Bu usulda so'zlarning o'zagiga sufiks yoki prefix qo'shish orqali yasaladi.

Ion+ic poly+merization,ion+li poli+merlanish;isomer+ization,isomer+lanish **Konversiya**

Konversiya so'z bir so'z turkumidan ikkinchisiga o'tganda sodir bo'ladi.

Varnish,qoplama ;varnish,qoplama yotqizmoq;poison,zahar;poison ,zaharlanish

Terminologiyaning o'ziga xos xususiyati uning tildagi maxsus vazifasi tushunchalarni to'g'ri yetkazish bilan belgilanadi [5]. Til birliklari bo'lgan atamalar mutaxassislarining o'zaro tushunishlari uchun zarurdir. Ushbu maqolada terminlarning semantik tahlili va ularning nazariyasi atroflicha o'rganiladi.

Terminlar semantikasi atamalarning ma’nosini talqin qilish jarayoni bo‘lib ularni odamlarga tushunarli qilib izohlashdir.Terminlar semantikasi tildagi ma’no murakkabligi sababli turli xil nazariyalarga asoslanadi:

- 1) Leksik semantika (Lexical semantics)
- 2) Rasmiy semantika (Formal semantics)
- 3) Konseptual semantika (Conceptual semantics)

Terminologiyalarning leksik-semantik tahlili atamalarning ichki mazmuniga ta’sir ko‘rsatgan omillarni ochib beradi.

Bu esa mutaxassisslarga ham o‘rganuvchilarga ham qulaylik yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Terminologiyaga bag‘ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, asosan nominativi bajaradigan birliliklar termin hisoblanadi deb qaraladi .

A.Reformatiskiy, A.V.Kalinin, R.Doniyorov, X.Dadaboyev, I.X.Sadiqova , O.S.Ahmedov tadqiqotlarida terminologiyaning leksik –semantic hamda so‘z yasash usullari tahlili atroficha talqin etiladi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi soliq va bojxona terminlarining tarjima qilinishi masalalari hamda ingliz, rus va o‘zbek tillarida non mahsulotlari texnologiyasi terminlarini lisoniy xususiyatlari o‘zbek tilshunos olimlarining ilmiy ishilarida batafsil yoritib berilgan.

Terminologik jarayonda so‘z ma’nosining torayishi va kengayishi, tushunchalarning o‘xshashligi uzyviligini rus tilshunosi D.S.Lotte tahlil qilgan.A.A.Reformatiskiy terminologiyada so‘zlarning metaforik, metonimik va vazifasi o‘xshashligi bo‘yicha ko‘chishini ko‘rsatib bergen.

Tadqiqot metodologiyasi. Terminologiya umumiy so‘z yoki iboraga ilmiy yoki maxsus ma’no berishni o‘z ichiga oladi, ayni paytda umumiy so‘zning asl ma’nosini yo‘qolmaydi, balki yangisi bilan bir qatorda foydalaniladi.Terminologiya jarayoni “tabiiy tildagi konseptual ishlov berishning chuqur bosqichidan o‘tadigan murakkab jarayon” [2]

Terminologiya jarayoni bir necha bosqichda sodir bo‘ladi .Birinchi bosqichda mutaxassis o‘z sohasidagi yangi tushunchani nomlash uchun umumiy adabiy tildagi so‘zdan foydalanadi, keyin uning ma’nosini tor va ixtisoslashgan bo‘ladi.

S.V.Grinevning so‘zlariga ko‘ra “yangi material, vosita, obyekt yoki tushunchaning paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan har qanday so‘z atama bo‘lishi mumkin, ammo ilmiy fanlarning rivojlanishi bilan terminlar maxsus leksika sifatida nutqda mustahkamlanadi [3]

Terminologiya jarayonini o‘rganishda umumiy adabiy so‘zning terminga o‘tish jarayonini ko‘rib chiqish odatiy holdir.Umumiy adabiy til so‘zlarining terminologiyasi jarayonida umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan, lekin ular tarkibidagi birliliklarning xususiyatlarga ega bo‘lgan, lekin ular tarkibidagi birliliklarning xususiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi bir qancha usullarni ajratib ko‘rsatish mumkin.Terminologiyada so‘z ma’nosining kengayishi, tushunchalar o‘xshashligi va tushunchalarning uzyviligi o‘zarlo bir biri bilan bog‘liq [8].Terminologik jarayonda so‘zlarning metaforik, metonimik va vazifa o‘xshashligi bo‘yicha ma’no ko‘chishini Reformatskiy o‘z ilmiy ishlarida amaliy tadbiq etган.

Tashqi xususiyatlarning o‘xshashligi bilan ma’nosini ko‘chgan atamalar metaforalash yo‘li bilan hosil bo‘lgan atamalardir.Metaforizatsiya jarayonida atama yangi kommunikativ vazifa bajaradi va maxsus leksikaga aylanadi .Metafora “odatdagi yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nodan farq qiladigan bevosita nostonart ma’noni aniqlashga yordam beradigan kontekstda” [4] qo‘llaniladi. Shu nuqtayi nazardan atamalarni nomlashning bu usuli til rivojlanishining dastlabki bosqichlaridanoq keng tarqalgan deyish mumkin.

Tushunchalarning uzyviligi va ularning analogiyasi - metanomiyadir. Kimyoviy atamalarning metanomik yo‘l bilan hosil bo‘lishini quyidagicha asoslash mumkin:

- 1) Mavjud material nomi undan tayyorlangan mahsulot nomiga ko‘chishi; masalan: polythene-polietilin, polimer-polimer, rubber-rezina
- 2) Joy yoki aholi yashaydigan manzil nomi material yoki modda nomiga ko‘chishi; masalan: Congo gum -Kongo saqichi, Congo copal- Kongo kopali
- 3) Ish-harakatdan shu ish harakatning natijasi namoyon bo‘lgan nomning atama sifatida yaxlitlanishi; masalan: oxidize –oksidlamoq, oxide-oksid
- 4) Muallifning nomi u yaratgan mahsulot yoki yangilikka qo‘yilishi bilan atamaga aylanadi; masalan: Avagodro’s number-Avogadro soni, Babo’s Law-Babo qonuni, Bakilete-Bakelit, Siemens-Martin process- Siemens -Martin jarayoni va boshqalar

Terminlar hosil bo‘lishining yana bir usuli metaforik yo‘l bilan amalga oshadi. Bu jarayonda so‘zlarning narsa-hodisaga o‘xshashligi nazarda tutilgan holda ma’nosini ko‘chadi. masalan: angle head- burchak boshi, cat eyes-rezina bo‘laklari

Tahlil va natijalar. Bilimning barcha sohalarida bir xil semantikaga ega bo‘lgan, lekin alohida sohalar terminlari tarkibiga kiruvchi bu semantikani konkretlashtiruvchi umumiy ilmiy tushunchalarni bildiruvchi umumiy ilmiy va umumiy texnik terminlar. Xuddi shu maqomda fanlararo atamalar mavjud bo‘lib, ular har safar ularning terminologik tizimlarida ko‘rsatilgan bilimlarning bir nechta sohalarida qo‘llaniladi. Ko‘rib chiqilayotgan terminlar tizimida biz quyidagi leksik birliklarni ko‘rsatib o‘tamiz:

ing.: Avogadro’s Law, Boyle’s Law, bond length, amplitude, weight strain, surface tension;

o‘zb.: Avogadro qonuni, Boyl qonuni, bog‘ uzunligi, amplituda, og‘irlik deformatsiyasi, sirt tarangligi.

Keng semantika terminlari, ko‘pgina termin sistemalarida qo‘llaniladigan leksik birliklardir. Lekin har qanday termin tizimida bir xil semantikaga ega bo‘lgan, faqat konkretlashtiriladigan umumiy ilmiy (umumiy texnik) terminlardan farqli o‘laroq, bunday leksik birliklar o‘z semantikasini o‘zgartirib, termin tizimlarning har biriga kirib, faqat eng umumiy, terminologik bo‘lmagan ma’noni saqlab qoladi.

ing.: dibutyl isosebacate, alternating polymers, air-lock, Mylar, polyvinyl acetate, tactic block polymer; Weight-per-gallon cup;

o‘zb.: dibutil izosebakat, o‘zgaruvchan polimerlar, havo blokirovkasi, Mylar, polivinilatsetat, taktik blokli polimer; bir gallon chashka vazni;

Polimerlar kimyosi, umuman, kimyoviy atamalarni ilmiy kuzatish jarayonida terminlarning so‘z turkumlari bo‘yicha alohida-alohida strukturada ekanini anglash mumkin. Bular:

N. + N. Ot + Ot	chip board chip taxtasi	charcoal dye ko‘mir bo‘yoq	reduction chair reduktorli uzatgich	salt bed tuz qatlam
--------------------	----------------------------	-------------------------------	--	------------------------

N. Adj. Ot Sifat	+	copper blue mis ko'k	iron blue temir ko'k	chemical property kimyoviy xossa	destructive distillation destruktiv haydash
Adj. N. Sifat + Ot	+	cold flow sovuuq oqim	cold test sovuuq sinov	commercial weight tijoriy vazni	continuous tone doimiy ton
Adj. Adj. Sifat + Sifat	+	chinese blue xitoycha ko'k	red-hot qip-qizil cho'g'		

Terminlar semantikasi bilan ishlashda atamaning quyidagi ikki xususiyatiga e'tibor berish lozim.

- 1) Terminning ma'lum bir til doirasigagina xosligi
 - 2) Terminning baynalmilalligi

Atamalarning ma'lum bir til doirasigagina xosligi deganda terminning umumiyl tilshunoslik uchun emas, balki bir til doirasiga xosligi tushuniladi. Masalan, gap kengaytiruvchi, gap markazi atamalari faqat o'zbek tilshunosligiga xos.

Terminlarning baynalmilalligida esa atama tarjima qilinmaydi. Dunyo ilm-fanida yagona nom bilan atalaveradi. Masalan: beton, monomer, gas, jelatin va boshqalar.

Terminologiya tilshunoslikning ko‘p murojaat qilinadigan, ammo yetarli darajada ko‘p o‘rganilmagan sohasi. Atamalarning, ayniqsa, kimyoviy terminlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida yana bir qator ilmiy nazariyalar, jiddiy ishlar qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolamiz terminologiya sohasidagi kata izlanishlarimizga dastlabki qadamdir.

Xulosa va takliflar. Terminlarning qo'llanilish doirasi chegaralanganligi ularning boshqa soha vakillari uchun tushunarsiz bo'lishi degani emas. Masalan: "tog'ri chiziq, xlor, tezlik, so'z turkumi" atamalari ko'pchilik uchun tushunarli, soha kishilaridan boshqalar nutqida kam iste'molli. Ummuniste'mol tilidan ilmiy terminga o'tgan atamalar ham talaygina. Xo'sh, ularni ko'p semimali leksimaning ma'lum bir ma'nosida qo'llanilishi deyish kerakmi yoki alohida? Agar atamalar alohida leksema deb qaraladigan bo'lsa, ular umumiste'moldagi leksema bilan omonimlik munosabatidami?

Ma'lumki, ko'pgina omonim leksemalar aslida ko'p ma'noli leksema ma'nosidan birining boshqalaridan uzilishi natijasida hosil bo'ladi. Shunday ekan, terminlarga ham asl substansiyanidan uzilgan mustaqil leksema sifatida qarash lozim. Bunga terminga qo'yiladigan bir ma'nolilik talabi ham asos bo'ladi. Demak, termin va umumistemol leksima bir narsaning ikki qirrasi, bir leksemaning ikki ma'noda qo'llanilishi emas. Bu masala keyingi ishlarimizda yana teranroq muhokama qilinadi.

ADABIYOTLAR

- АВАЙТОЛАР**

 1. R.Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili . T-2009.
 2. Володина М.Н. Когнитивно-информационная природа термина(на материале терминологии средств массовой информации) М.2000
 3. Grinev S.V. Terminology and Nomenclature in Russian Terminology Science [Text] /S.V. Grinev / Terminologie und Nomenklatur. –Long, 1996
 4. Блек, М Метафора . Теория метафоры.
 5. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. T- 2019
 6. M.M Shokirova, Sh.P. Nurullayev. Inglizcha-O'zbekcha-Ruscha kimyo terminlari lug'ati. T.; Tafakkur bo'stoni , 2003
 7. O'zbek tilining izohli lug'ati T.; "O'zbekiston milliy inseklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti 2006. 4-jild.
 8. Даниленко В.П Русская терминология.Опыт лингвистического описания-М.:Наука ,1977.-246c.
 9. Jan W.Gooch. Encyclopedic Dictionary of Polymers. E-dictionary
 10. ABBY Lingvo 6 e-dictionary